

O'ZBEK VA TURK TILLARIDAGI FE'LLARNING QIYOSIY TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15272585>

Muzaffarova Feruzabonu Yodgor qizi

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti talabasi

Email: muzaffarovaferuzabonu2com@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada dastlab fe'l so'z turkumiga oid qisqacha ma'lumot berib o'tilgan. So'ngra o'zbek va turk tillaridagi fe'llarning qiyosiy tahlili yoritilgan. Tahlil jarayonida o'zbek va turk tilidagi fe'llar taqqoslangan. Shuningdek, ular orasidagi semantik xususiyatlar ham tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar

qiyosiy tahlil, semema, leksema, til, atash ma'no.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ГЛАГОЛОВ УЗБЕКСКОГО И ТУРЕЦКОГО ЯЗЫКОВ.

Аннотация

В этой статье сначала дается краткая информация о глагольной фразе. Затем проводится сравнительный анализ глаголов в узбекском и турецком языках. В ходе анализа сравнивались глаголы в узбекском и турецком языках. Также были проанализированы семантические особенности между ними.

Ключевые слова

сравнительный анализ, семема, лексема, язык, значение слова.

COMPARATIVE ANALYSIS OF VERBS IN UZBEK AND TURKISH LANGUAGES.

Abstract

This article first provides a brief overview of the verb word class. Then, a comparative analysis of verbs in the Uzbek and Turkish languages is presented. In the process of analysis, verbs in the Uzbek and Turkish languages are compared. Also, semantic features between them are analyzed.

Keywords

comparative analysis, sememe, lexeme, language, etimological meaning.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Xorijiy tillarni oʻrgatish boʻyicha kelajak uchun mustahkam poydevor boʻladigan yangi tizimni yoʻlga qoʻyish vaqti-soati keldi” deb bejiz aytmaganlar. Prezidentimizning yoshlarga qaratayotgan eʼtiborlari va yaratib berayotgan imkoniyatlariga munosib boʻlish uchun harakatdan toʻxtamaslik joiz. Maqoladan koʻzlangan maqsad ham chet tillarini oʻrganish va feʼl soʻz turkumining qiyosiy tahlil asosida semantik xususiyatlarini oʻrganishdan iborat.

Maʼlumki, shaxs yoki narsalarning harakat-holatini bildirib, Nima qildi? Nima qilyapti? Nima qilmoqchi? kabi soʻroqlarga javob boʻladigan soʻzlar feʼl deyiladi. Oʻzbek tilida feʼlning quyidagi grammatik kategoriyalari bor: nisbat kategoriyasi, boʻlishli-boʻlishsizlik kategoriyasi, mayl kategoriyasi, zamon kategoriyasi, shaxs-son kategoriyasi. Feʼllar qanday harakat-holat ifodalashiga koʻra quyidagi maʼnoviy guruhlariga boʻlinadi: nutqiy faoliyat feʼllari, aqliy faoliyat feʼllari, jismoniy faoliyat feʼllari, holat feʼllari. Feʼl soʻz turkumi boʻyicha Tilakova Sohibjamol Ergashovna “Oʻzbek tili holat feʼllarining lingvostilistik xususiyatlari” mavzusida dissertatsiya yoqlagan. Dissertatsiyada oʻzbek tilida feʼl leksemalarining tadqiqi, holat feʼllarining stilistikasi yoritilgan [4]. Sulaymonova Maftuna Oxunjon qizining “Feʼl soʻz turkumi va uning leksik-semantik tasnifi” mavzusida maqolasi mavjud boʻlib, bu maqolada ingliz va oʻzbek tilidagi feʼllarning grammatik tabiati, holat feʼllarining stilistikasi yoritilgan [3].

Mazkur maqolada esa feʼl soʻz turkumining qiyosiy tahlil asosida semantik xususiyatlari tahlil qilish maqsad qilindi. Qiyoslash uchun turk tili tanlanib, ikkala tildagi muayyan feʼllarning izohlari va oʻziga xosliklari bayon etildi. Ishda 10 ta feʼl tanlangan boʻlib, ularning qiyosiy tahlili

oʻzbek tilidagi muqobili bilan bir xil. Turk tilida kompozitsion usulda yasalgan. Oʻzbek tilida esa mazkur feʼl soʻz quyidagicha yoritildi:

1. Azoblamoq- jismoniy yoki ruhiy azob bermoq. Bu feʼl turk tilida “Eziyet etmek” va “acı çekti” soʻzi bilan ifodalanadi. Maʼnosi yasovchi qoʻshimcha yordamida yasalgan. Masalan: “Er ayolini urib jazolar, ayol esa bu qiynoqlardan azoblanardi” - “Koca karısını döverek cezalandırdı ve kadın bu işkenceden acı çekti”. Koʻrinib turibdiki, bu ikkala gapda “Azoblamoq” feʼli bir xil semantik vazifa bajargan. [2,3; 50] [3;13]

2. Bajarmoq- 1) biror ish, reja, majburiyat, yoki topshiriqni amalga oshirmoq, bajo keltirmoq, ado etmoq. 2) biror harakatni ijro etmoq(rol, musiqa, raqs va sh.k.ni) Bu feʼl turk tilida “Becermek” soʻzi bilan ifodalanadi. Maʼnosi:1) biror ishni, topshiriqni, bajo keltirmoq, ado etmoq, oʻtamoq.[1;139] [3;27] M:“U ishlarini aʼlo darajada bajardi” - “İşini mükemmel becerti”.

3. Bahslashmoq - 1) bahs(munozara) da qatnashib, har xil fikrlardan birini, xususan, o'z fikrini yoqlab so'zlamog; tortishmoq, talashmoq. 2) Musobaqalashmoq, g'oliblik uchun kurashmoq. Bu so'z turk tilida " Tartismak , Munokaşa etmek" so'zlari bilan ifodalanadi. Ma'nosi: ilmiy, adabiy va shu kabi mavzuda munozara qilmoq, tortishmoq. O'zbek tilidagi muqobili bilan deyarli bir xil ma'noda qo'llaniladi. [1;178] [3;31]

4. Boshlamog - biror ishga kirishmoq. Bu so'z turk tilida "Başlamak" so'zi bilan ifodalanadi. Ma'nosi o'zbek tilidagi muqobili bilan bir xil. [1;341] [3;39]

5. Bukchaymoq - 1) yelkalarini chiqarib, ko'kragini ichiga olib engashmoq. 2) belini, ko'kragini ko'tara olmay enkayib qolmoq, qaddi egilmoq. Bu fe'l turk tilida "Yumulmak" so'zi bilan ifodalanadi. Ma'nosi o'zbek tilidagi muqobili bilan bir xil. [1;369] [3;41]

6. Valdiramoq- bo'lar-bo'lmas, notayin gaplarni gapirmog, og'ziga kelganini so'zlamog. Bu fe'l turk tilida "Saçmalamak" so'zi bilan ifodalanadi. Ma'nosi o'zbek tilidagi muqobili bilan bir xil. [1;478] [3;47]

7. Galdiramoq- tili so'zga kelmay, tili aylanmay g'o'ldiramoq, esankirab qolmoq, o'zini yo'qotib qo'ymoq. Bu fe'l turk tilida "Afallamak" so'zi bilan ifodalanadi. Ma'nosi "tili so'zga kelmay, tili aylanmay g'o'ldiramoq, o'zini yo'qotib qo'ymoq. Ko'rinib turibdiki, bu fe'llarning sememasi bir xil. [1;478] [3;47]

8. Gapirmog- 1) fikrini og'zaki bayon etmog; so'zlamog, aytmog, nutq so'zlamog. 2) gapirish, so'zlash qobiliyatiga ega bo'lmoq. 3) talaffuz qilmoq. Bu fe'l turk tilida " Konuşmak, söylemek" so'zlari bilan ifodalanadi. Ma'nosi "og'zaki ravishda fikr, mulohaza bayon etmog, so'zlamog". Bundan ko'rinib turibdiki "Gapirmog" fe'lining ma'noviy semasi turk tilidagi muqobiliga nisbatan ancha keng. Bu fe'lni shivirlamoq, pichirlamoq, gapirmog graduonimik qatorda ifodalash o'rinlidir. [1;485], [3;51] M: "Nafisa kula-kula gapirar, quvonchini hech yashira olmas edi" - "Nafisa gülümseyerek konuşurdu, sevincini asla gizleyemezdi".

Ikkala gapda ham "Gapirmog" fe'lining "fikrini og'zaki bayon etmog,so'zlamog" sememasi ifodalangan. Shu kabi misollardan turk tili va o'zbek tilini naqadar bir-biriga o'xshashligi yaqqol ko'rinib turibdi.

9. Gullamoq- 1) gul ochmog, gulga kirmog. 2) Mog'orlamog, popanak bosmog. Masalan: non gullabdi. Bu fe'l turk tilida "çiçek açmak; 2) başarılarla gelişmek" so'zlari bilan ifodalanadi. Ma'nosi: 1) gul ochmog, gulga kirmog, 2) go'zallashmog; ravnaq topmog. Bu fe'lning o'zbek tilidagi muqobili affiksatsion usulda, turk tilidagi muqobili esa kompozitsion usulda yasalgan. O'zbek tilidagi bu fe'l salbiy ifoda bo'yog'iga ham egaligi bilan turk tilidagi muqobilidan farq qiladi. Masalan: "Uzoqdan daraxtlarning gullagani ko'rinib turardi, rassom uchun ajoyib

g`oyalar tug`ilaverardi” - “Uzaktan a`ga`clarin `ci`çek a`c`tıg`ı g`or`ulebiliyordı ve sanat`çıya s`urekli harika fikirler geliyordı” [1;520], [3;54]

Jamlamoq – to`plamoq, yig`moq. Bu fe`l turk tilida “Toplamak” so`zi bilan ifodalanadi. Ma`nosi o`zbek tilidagi muqobili bilan bir xil. M: “Habib yig`gan pullarini otasiga etib berdi” - “Habib biriktirdi`gi parayı toplayıp babasına verdi”. Bu ikkala gaplardan ma`lum bo`ladiki, “Jamlamoq” fe`lining “to`plamoq, yig`moq” ma`nosi saqlanib qolgan. [1;68], [3;70]

Ko`rinib turibdiki, o`zbek va turk tili qarindosh til bo`lganligi uchun tahlil qilingan deyarli barcha fe`llarda o`xshashlik ko`zga tashlanadi. Shunga qaramasdan, gapimoq, gullamoq kabi bir qator fe`llarning ma`noviy o`ziga xosliklari ham aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, o`zbek va turk tillaridagi fe`llarni qiyosiy tahlil qilish ikkala tilning sememalari qanchalik bir-biriga o`xshashligini va ikki qardosh tillardagi farqlarni solishtirib, tillar haqida yanada ko`proq bilimga ega bo`lishimizga yordam beradi. Zero, ota-bobolarimiz aytganlaridek: “Til bilgan- el biladi”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. А. Мадвалиев ва Ё. Ўзбек тилининг изохли лугати, Тошкент "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти , 2006.
2. Sayfullayeva R. Hozirgi o`zbek adabiy tili. – T., 2010.
3. Sulaymonova M. Fe`l so`z turkumi va uning leksik-semantik tasnifi. // “Oriental Art and Culture”Scientific-Methodikal Journal – Issue 6 / 2021- 187-191 b.
4. Tilakova S. O`zbek tili holat fe`llarining lingvostilistik xususiyatlari:Lingvistika(o`zbek tili) mutaxassisligi bo`yicha magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan diss. –Termiz.,2023-81 b.
5. Тунжай Ўзтурк ва Ё. Ўзбекча-туркча ва туркча-ўзбекча изохли луғат. – Т.: Ўзбек-турк лицейлари нашри, 1997.
6. www.ziyouz.com kutubxonasi.